

REKLAMA (ADMIN) XIZMATI BO'YICHA TAKLIF (OFERTA) SHARTNOMASI

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, bir tomondan "TANOS" MChJ STIR: 305566074, **"Stok.uz"**, "servis" orqali tovarlarni reklama qilish xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida ikkinchi tomondan reklama xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs (keying o'rinlarda – Admin) quyidagi shartlarda shartnoma tuzadilar.

I. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1. **Taklifni (Ofertani) qabul qilish** – ushbu Ofertaning II-bo'limida ko'rsatilgan harakatlarni bajarish orqali to'liq va so'zsiz qabul qilish.
2. **Admin** – "TANOS" MChJ platformasi" ni reklama qilish orqali "TANOS" MChJ platformasi" dan foydalanuvchi mijozlar sonini oshirish xizmatini ko'rsatuvchi shaxs.
2. **Shartnoma** – "TANOS" MChJ va Admin o'rtasida reklama xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha pullik shartnoma bo'lib, u taklifni (ofertani) akseptlash yo'li bilan tuziladi.
3. **Buyurtma** – "TANOS " MChJ platformasi" orqali berilgan, Xaridorning tovarni sotish-sotib olish va ushbu tovarni yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzish niyyatini bildiruvchi qarori.
4. **Taklif** (oferta) – "TANOS " MChJ tomonidan internetda **"Stok.uz"** manzilida joylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta hujjati.
5. **Xaridor** – "TANOS MChJ platformasi" xizmati bo'yicha tovar sotib olishga buyurtma bergan yoki yuridik yoki jismoniy shaxs.
6. **"TANOS MChJ platformasi"** – kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari (jumladan, "TANOS MChJ mobil ilovasi"), Xaridorlarga lozim bo'lgan tovarlarga buyurtma berish va ularni yetkazib berish imkonini beradigan onlayn tizim.
7. **Tovar** – Sotuvchi tomonidan "TANOS MChJ platformasi" xizmati orqali sotiladigan nooziq-ovqat mahsulotlar.

II. TAKLIFNI (OFERTANI) QABUL QILISH VA SHARTNOMANI TUZISH

1. Taklifni (Ofertani) qabul qilish Admin tomonidan “TANOS MChJ platformasi” orqali ro‘yxatdan o‘tgan holda ofertani qabul qilish uchun ariza yuborish orqali amalga oshiriladi. ofertani qabul qilish uchun ariza shakli Adminning iltimosiga binoan “TANOS” MChJ tomonidan taqdim etiladi.

2. Taklifni (Ofertani) qabul qilish to‘g‘risidagi ariza Admin tomonidan elektron shaklda “TANOS MChJ platformasi” orqali “TANOS” MChJga yuboriladi.

3. Admin tomonidan Taklifni (Ofertani) qabul qilinishi Oferta shartlari bo'yicha Shartnomani tuzilganligini tasdiqlaydi. Taklifni (Ofertani) bron qilish bilan qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi. Admin Taklifni (Ofertani) qabul qilib, Ofertaning ajralmas qismi bo'lgan va Tomonlar uchun majburiy bo'lgan Oferta shartlari va unga barcha ilovalar bilan tanishganligini va to'liq roziligini tan oladi va tasdiqlaydi.

– Admin “TANOS” MChJ tomonidan **“Stok.uz”**, platformasiga joylashtirilgan tovarlar haqidagi ma'lumotlarni asl holicha (*ya'ni, tovar narxi, ko'rinishi, hajmi, nomi va ishlab chiqaruvchisi kabi ma'lumotlarga biron bir qo'shimcha o'zgartirishlar kiritmasdan*) reklama qilish, tarqatish, joylashtirish majburiyatini oladi ;

– “TANOS” MChJ Admin tomonidan **“Stok.uz”**, platformasiga reklama qilish jaroyanida tovarlar tog'risida noto'g'ri axborot bergan va istemolchilarga yani xaridorga tarqatsa tarqatgan yolg'on reklamasi uchun “TANOS” MChJ tomonidan iqtisodiy jazo choralari qo'llaydi;

4. Ushbu Taklifni (Ofertani) tasdiqlash uchun Admin tomonidan “TANOS” MChJga quyidagi hujjatlar nusxalarini taqdim etish majburiyatini oladi:

– Admin yuridik yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansa (*guvohnoma ustav rahbar passport yoki ID karta nusxasi ha h.k*) korxona ma'lumotlari taqdim etadi.

– Admin jismoniy shaxs bo'lsa (*passport yoki ID kartasi nusxasi mavjud bo'lsa*) haq to'lash uchun uning bank kartasi ma'limotlari.

III. SHARTNOMA PREDMETI

1. Shartnomaning predmeti – “TANOS” MChJ **“Stok.uz”**, – platformasi” ga joylashtirilgan tovarlar reklamasini tarqatish orqali **tovarlarni sotilishiga erishish**.
2. “TANOS” MChJ tomonidan ushbu Taklif (Oferta) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida doirasida xizmat ko'rsatiladi.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURATLARI

1. Admin belgilangan tartibda Taklifni (oferta) qabul qilgach, ko'rsatgan xizmatlari uchun o'z vaqtida xizmat haqini talab qilish huquqiga ega. Shuningdek, ushbu Taklif (Oferta)da belgilangan tartibda muntazam va sifatli hamda tezkor xizmat ko'rsatish majburiyatiga ega.
2. “TANOS” MChJ, Admin tomonidan belgilangan tartibda Taklifni (oferta) qabul qilingach, undan ushbu Taklif (Oferta)da belgilangan tartibda sifatli va tezkor xizmat ko'rsatishni talab qilish huquqiga ega. Shuningdek, Admin tomonidan ko'rsatgan xizmatlari uchun o'z vaqtida xizmat haqini to'lab berish majburiyatini oladi.

V. XIZMATLAR NARXI VA TO'LOV TARTIBI

1. Admin tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar natijasida sotilgan tovardan kelib chiqib Sotuvchi belgilab bergan tariflarga muvofiq amalga oshiriladi.
2. Sotuvchi admin reklama berib turgan mahsulot narxini yoki adminga beriladigan ulushini 12 soat oldin **Stok.uz**, – platformasi”ga elon berga holda o'zgartirishi mumkin.
3. Xizmatlarni ko'rsatish va Adminning xizmatlari qiymatini hisoblash bo'yicha hisobot davri kalendar oyi (keyingi o'rinlarda “Hisobot davri” deb yuritiladi) hisoblanadi.
4. Admin yuridik yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansa bo'lsa “TANOS” MChJga xizmatlarining yakuniy qiymati ularga yuborilgan elektron hisob-fakturada ko'rsatilgan.

5. “TANOS” MChJga, Admin tomonidan ko‘rsatilgan xizmatga mutanosib ravishda belgilangan xizmat haqini agarda Admin jismononiy shaxs bo‘lsa bank karta raqamiga to‘lab beradi.

6. Admin jismoniy shaxs bo‘lsa “TANOS” MChJ tomonidan to‘langan xizmat haqiga nisbatan daromad soliqlarini, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 387 va 393-moddalariga muvofiq daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida Davlatga soliq to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

1. Tomonlar Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun Shartnoma qoidalariga va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

2. Penya to‘lash Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

3. Tomonlar o‘z ushbu shartnomada belgilangan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganda majburiyatlarni bajarmagan Tomon har bir kun uchun 0,1% miqdorida, lekin hisobot davri uchun Xizmat qiymatining 1% dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima to‘laydi.

4. Tomonlar o‘z faoliyatini yuritishda O‘zbekiston Respublikasining 07.06.2022-yildagi “Reklama to‘g‘risida”gi O‘RQ–776-son Qonuni va boshqa reklama sohasiga oid normativ huquqiy hujjatlarga rioya etishi shart.

VII. NIZOLALARNI HAL QILISH TARTIBI

1. Shartnomani bajarish jarayonida Tomonlar o‘rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi, tomonlar o‘rtasida kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, nizolar sud tartibida hal qilinadi.

VIII. SHARTNOMA MUDDATI. TAKLIF VA SHARTNOMA SHARTLARINI O'ZGARTIRISH.

12.1. Taklif (Oferta) **“Stok.uz”**, internet tarmog‘ida e‘lon qilingan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi va “TANOS” MChJ Taklifi qaytarib olinmaguncha amal qiladi.

2. Taklif (Oferta) ning 2-qismiga muvofiq amalga oshirilgan Taklifni (Ofertani) Admin tomonidan qabul qilinishi ushbu Taklifda (Oferta) belgilangan shartlar bo‘yicha Shartnoma **(O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 366-moddasi)**ga asos bo‘ladi.

3. Shartnoma Taklif (Oferta) Adminning tomonidan qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi va Shartnoma bekor qilinmaguncha amal qiladi.

4. Adminning Taklif (Oferta) matni bilan muntazam ravishda mustaqil ravishda tanishib chiqish majburiyatini oladi.

5. “TANOS” MChJ Taklif (Oferta)ga o‘zgartirishlar kiritish va to‘ldirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Agar “TANOS” MChJ Taklif (Oferta)ga o‘zgartirishlar kiritilsa, bunday o‘zgartirishlar Taklif (Oferta)ning tuzatilgan matni *(uning ajralmas qismi bo‘lgan hujjatlar)* Internet tarmog‘ida **“Stok.uz”**, manzilida joylashtirilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi. Taklif hamkorlari, agar boshqa muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, o‘zgarishlarning kuchga kirishi bunday joylashtirishdan keyin aniqlanmaydi.

6. Adminning Taklif (Oferta)ga o‘zgartirishlar kiritish – Admin va “TANOS” MChJ o‘rtasida tuzilgan va amaldagi Shartnomaga ushbu o‘zgartirishlar kiritishni nazarda tutadi va Shartnomaga kiritilgan ushbu o‘zgartirishlar Taklif (Oferta)ga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan bir vaqtda kuchga kirishiga rozilik beradi va tan oladi.

7. Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

– istalgan vaqtda Tomonlarning kelishuviga binoan;

– Tomonlardan birining tashabbusi bilan bir tomonlama tartibda suddan tashqari boshqa Tomonga tugatishning kutilayotgan sanasidan 30 (o‘ttiz) kalendar kun oldin yozma xabarnoma yuborish orqali. Bunday holda, bekor qiluvchi Tomon boshqa Tomonga har qanday zararni/xarajatlarni qoplashni va bekor qiluvchi

Tomonga nisbatan sanksiyalarni qo'llamasdan qoplamaydi. Shartnoma tegishli bildirishnoma yuborilgan kundan boshlab belgilangan muddat tugashi bilan bekor qilingan hisoblanadi.

– ushbu Ofertada va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.

8. Tomonlarning Taklif (Oferta) bo'yicha o'z mohiyatiga ko'ra u tugaganidan keyin ham qo'llanilishi kerak bo'lgan majburiyatlari (*shu jumladan, o'zaro hisob-kitoblar, ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha, lekin yuqoridagilar bilan cheklanmagan*) majburiyatlari Shartnoma bekor qilingandan keyin ham o'z kuchida qoladi.

9. Tomonlar samarali hamkorlik qilish maqsadida Tomonlar elektron pochta orqali ma'lumotlarni uzatish usullarini belgilab oldilar:

– “TANOS” MChJ uchun: _____

– Adminning uchun: Taklifni qabul qilish uchun arizada ko'rsatilgan elektron pochta manzili.

IX. BOSHQA SHARTLAR

1. Tomonlar, agar Taklif (Oferta) qoidalaridan birortasi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar tufayli uning amal qilish muddati davomida o'z kuchini yo'qotsa, Ofertaning qolgan qoidalari Shartnoma amal qilish muddati davomida Tomonlar uchun majburiy bo'lib qolishini tan oladi.

2. Admin Taklif (Oferta)ni qabul qilish jarayonida shaxsiy ma'lumotlarni “TANOS” MChJga o'tkazish (qayta ishlash) uchun barcha zarur roziliklar, shu jumladan, Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun olinganligini tasdiqlaydi.

X. YAKUNIY QOIDALAR

1. Ushbu shartnoma o'zbek tilida elektron imzo bilan tasdiqlandi.

“TANOS” MChJ manzili: Toshkent shahri, Uchtepa tumani 22-MAVZE, 29-UY, 26-XONA

